

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XUDAYKULOV FERUZBEK XURRAMOVICH

**JINOYAT TARKIBI OBYEKTIV TOMONINING NAZARIY
VA AMALIY JIHATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi

**yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mudariyasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich

Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining nazariy va amaliy jihatlari5

Khudaykulov Feruzbek Xurramovich

Theoretical and practical aspects of objective side of corpus delicti31

Худайкулов Ферузбек Хуррамович

Теоретические и практические аспекты объективной стороны состава преступления57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works62

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XUDAYKULOV FERUZBEK XURRAMOVICH

**JINOYAT TARKIBI OBYEKTIV TOMONINING NAZARIY
VA AMALIY JIHATLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi

**yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.DSc/Yu185 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Abdurasulova Qumriniso Raimkulovna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rustambaev Mirzayusup Xakimovich
yuridik fanlar doktori, professor

Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor

Abduqodirov Sherzod Yoqubjonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 15-dekabr kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1200-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar Amir Temur ko‘chasi 13-uy. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 30-noyabr kuni tarqatildi.

(2023-yil 30-noyabrdagi 11-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A. Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

M.Q. O‘razaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

N.S. Salayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uni oldini olish global ahamiyat kasb etmoqda, chunki unga qarshi samarali choralarini ishlab chiqish, jinoyatchilik sabab va shart-sharoitlarini, jinoyatning ichki va obyektiv (tashqi) tomoni belgilarini o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Afsuski, so'nggi yillarda jinoyatlarning miqdor va sifat ko'rsatgichlari butun dunyo va aksariyat davlatlarda ortib bormoqda. Har 100 ming kishiga jinoyatchilik indeksi AQSHda – 49.2, Angliyada – 46.9, Germaniyada – 38, Fransiyada – 54.5, Italiyada – 47.3, Yaponiyada – 22.6, Rossiyada – 39.7, O'zbekistonda – 31.3 ballni tashkil etgan. So'nggi uch yilda O'zbekistonda jinoyatchilik darajasi 45.24%ga ko'tarilgan¹. BMT Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda yarim million jinoyat ijtimoiy xavfli shakl va usullari orqali sodir etiladi va ularning aksariyati odam o'ldirish bilan yakunlanadi². Xalqaro hujjatlarda jinoyat uchun javobgarlikni qonunda to'g'ri ifodalash, qonunni qo'llash amaliyotini imkon qadar qulaylashtirish maqsadida qonunchilikni qayta ko'rib chiqishga e'tibor qaratilmoqda³. Yuqoridagilar jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, Jinoyat kodeksi normalarini to'g'ri qo'llash va adolatli jazo tayinlanishini ta'minlashning ustuvor vazifalar ekanligidan dalolat beradi.

Jahonda jinoyatchilikning oldini olish samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishi sifatida jinoyatchilikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari, xususan, jinoyat qonuni normalarini takomillashtirish; jinoyat tarkibi obyektiv tomonining nazariy va amaliy jihatlari va unga oid ilmiy-nazariy qarashlarni o'rganish, jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgilarini tasniflash; jinoiy qilmishning shakllari(harakat yoki harakatsizlik)ning belgilarini, ijtimoiy xavfli oqibatning vujudga kelish tabiati, tuzilishi, jinoiy qilmish va oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish va uni aniqlashda sababiyat zanjiri, shart-sharoitlar, mezon va qoidalarni tadqiq etish; jinoyat obyektiv tomoni belgilarining zaruriy va javobgarlikni og'irlashtiruvchi (kvalifikatsiyaviy) holat sifatida qilmishni kvalifikatsiya qilishdagi ahamiyati; jinoyat tarkibi obyektiv tomoni bo'yicha qilmishni kvalifikatsiya qilishning nazariy-amaliy masalalari va ular bilan bog'liq jinoyat qonunchiligi normalarini takomillashtirish; ularni qo'llash amaliyotini yaxshilash; jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish va jinoyat qonunchiligi va sud-tergov amaliyotini liberallashtirishning ilmiy va amaliy yechimini topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyat qonunchiligini isloh qilish, jinoyat-huquqiy normalarni qo'llash amaliyotini yaxshilash huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari faoliyatida qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarliligi prinsiplariga amal qilinishini kuchaytirishga katta e'tibor qaratilib, bu bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda va mazkur soha

¹ https://www.numbeo.com/crime/country_result.jsp?country=Uzbekistan

² <https://www.unodc.org>, <https://wisevoter.com/country-rankings/violent-crime-rates-by-country>

³ <https://www.unodc.org>

muayyan darajada rivojlantirilib, qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Xususan, “Jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish va “Qonun – ustuvor, jazo – muqarrar” tamoyilini bosh mezonga aylantirish”¹ mamlakat jinoyat qonunchiligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilanganligi, ushbu sohani tadqiq etish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi (2019) Qonuni, “Qurol to‘g‘risida”gi Qonuni (2019), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2016), “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021), “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” (2022) Farmonlari, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2017), “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018), “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2019) qarorlari va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Jinoyat va jinoyat tarkibi obyektiv tomoni, ijtimoiy xavfli qilmish(harakat yoki harakatsizlik) va oqibat, jinoiy qilmish va oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish, “corpus delicti” va “actus reus” konsepsiyalari va ularga oid jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC), Violence Research Centre University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Case Western Reserve University (AQSh), Law Government Gun Crime Prevention Research Center (AQSh), Canadian Domestic Homicide Prevention Initiative (Kanada), M.V.Lomonosov

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlar milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son // <https://lex.uz/docs/5841063>

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar <https://www.unodc.org>, <https://www.vrc.crim.cam.ac.uk>, <https://case.edu>, <https://theses.bham.ac.uk>, <https://crimereasearch.org>, <http://cdhpi.ca>, <https://www.msu.ru>, <http://www.apu.fsln.su>, <https://msal.ru>, <https://csu.ru>, <https://www.rsu.edu.ru>, <http://vuit.ru>, <http://www.rudn.ru>, <https://www.kantiana.ru>, kazcrim@netmail.kz, http://crimas.ru va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.

nomidagi Moskva davlat universiteti (RF), Rossiya xalqlar do'stligi universiteti (RF), Immanuil Kant nomidagi Boltiq federal universiteti (RF), Toshkent davlat yuridik universiteti kabi xalqaro, ilmiy va ta'lim muassasalarida amalga oshirilmoqda.

Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga oid tadqiqotlarda muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. Jumladan, qilmishni jinoyat sifatida e'tirof etish, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan samarali muhofaza qilish uchun jinoyat qonuniga yangi normalarni kiritish va takomillashtirishda jinoyat tarkibining obyektiv tomoni muhim ahamiyat kasb etishi, jinoyatning ichki tomoni aynan uning tashqi tomoni belgilari orqali aniqlanishi, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyat qonunchiligini isloh qilish va takomillashtirish, jinoyat-huquqiy normalarni qo'llash amaliyotini yaxshilash uchun mintaqaviy tadqiqotlar amalga oshirish lozimligi (BMT Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi); jinoyat sodir etilishida uning tashqi tomoni belgisi bo'lgan usul – zo'rlik ishlatishning o'rni va ahamiyati (Violence Research Centre, University of Cambridge); "Actus Reus"(jinoiy qilmish) shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning obyektiv mezoni ekanligi (Case Western Reserve University); jinoyat huquqida sababiy bog'lanish (legal causation) muhim ahamiyatga ega ekanligi (Birmingham Law School University of Birmingham); jinoyat sodir etishda quoldan foydalanish va uning g'ayriqonuniy muomalasi omili mavjudligi (Law Government Gun Crime Prevention Research Center); jinoyat obyektiv tomoni to'g'risida umumiy ta'limot (Rostov davlat universiteti); Rossiya jinoyat huquqida qilmishning ijtimoiy xavfliligi (Rossiya xalqlar do'stligi universiteti); harakatsizlik jinoiy tajovuzning shakli sifatida: Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha javobgarlik masalalari (Chelyabinsk davlat universiteti); jinoiy harakatsizlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini (S.A.Esenin nomidagi Ryazan davlat universiteti); Rossiya jinoyat huquqida jinoyatning oqibatlari, jinoyat huquqida ijtimoiy xavfli oqibat (V.N.Tatishchev nomidagi Volga universiteti); jinoiy qilmishning shakllari va turlari, jinoyat huquqida sababiy bog'lanish: nazariy va amaliy muammolar (O.E.Kutafin nomidagi Moskva davlat yuridik universitet (MGYUA)), jinoyat sodir etish usuli sifatida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning yakka tartibdagi profilaktikasining ahamiyati va o'rni (Qozog'iston kriminologik assotsiatsiyasi); jinoyat tarkibi obyektiv tomonining nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirish (Toshkent davlat yuridik universiteti) lozimligi to'g'risidagi xulosalar shakllantirilgan va asoslantirilgan.

Jahonda jinoyat tarkibi obyektiv tomoni bo'yicha: "Actus reus" (jinoiy qilmish) shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning obyektiv mezoni; "Actus reus"(jinoiy qilmish) va uning Yevropa jinoyat huquqida qo'llanishi; jinoyatning asosiy sababi sifatida "irodaviy hissiyot"ning ("mens rea" (aybli ong)dan "actus reus"(aybli qilmish)gacha) huquqiy jihatlarini; ingliz jinoyat huquqida sababiy bog'lanish(legal causation); Rossiya jinoyat huquqida qilmishning ijtimoiy xavfliligi; harakatsizlik jinoiy tajovuzning shakli sifatida; jinoiy harakatsizlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini; Rossiya jinoyat huquqida jinoyatning

oqibatlari, ijtimoiy xavfli oqibat; jinoyiy qilmish shakllari va turlari; jinoyat huquqida sababiy bog‘lanishning nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining nazariy va amaliy jihatlari milliy va dunyo jinoyat-huquqi fanining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda jinoyat tarkibi obyektiv tomonining nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek jinoyat tarkibi obyektiv tomoni bo‘yicha qilmishlarni kvalifikatsiya qilish masalalari va uning o‘ziga xos jinoyat-huquqiy ahamiyati juda ham kam o‘rganilgan.

Mamlakatimizda jinoyat tarkibi obyektiv tomonining umumiy jihatlari M.H.Rustambayev, M.Usmonaliyev, P.Bakunov, A.S.Yakubov, O.X.Rasulov, R.A.Zufarov, R.Kabulov, N.S.Salayev, M.Q.O‘razaliyev, A.A.Otajonov, T.R.Kuchkarov, F.Taxirov, S.S.Niyozova, E.O.Turgunboyev, X.Abzalova, G.Axmedova, S.S.Nayimov, A.K.Irkaxodjayev, U.Sh.Xolikulov, K.B.Hakimov, Sh.D.Xaydarov, R.S.Altiyev, X.R.Ochilov va boshqalar¹ tomonidan o‘rganilgan.

MDHga a‘zo davlatlar olimlari – N.S.Tagansev, N.F.Kuznesova, T.V.Sereteli, G.Kruger, L.L.Kruglikov, N.I.Panov, V.I.Gurov, A.V.Naumov, V.S.Komissarov, A.I.Korobeyev, Xe Binsun, A.I.Boysov, F.Mixaylov, S.I.Ulezko, M.V.Shkele, K.L.Akoyev, M.A.Atalyans, N.F.Mixaylov, B.V.Zdravomislov, A.I.Boyko, A.P.Kozlov, V.B.Malinin, A.F.Parfenov va boshqalar jinoyat tarkibi obyektiv tomoni zaruriy va fakultativ belgilarining alohida turlarini tadqiq qilishgan. A.N.Traynin, G.V.Timeyko, I.Renneberg, V.N.Kudryavsev, M.I.Kovalev, A.N.Popov, L.A.Zimireva, P.V.Fedishina va boshqalar²ning mavzuga oid ishlarini ham alohida ta‘kidlab o‘tish lozim.

“Actus reus”(jinoiy qilmish), jinoiy oqibat va ularning belgilari, sababiy bog‘lanish(legal causation) muammolariga oid masalalar George P.Fletcher, James Mangiafico, Paul H.Robinson, A.C.E. Lynch, Michael S.Moore, Douglas N.Husak, Herbert Morris, Michael Gorr, Arnold N. Enker, Sir William Blackstone, Glanville Williams, H.L.A. Hart, Michael Corrado, Oliver Wendell Holmes, J.W.Cicil Turner, John Austin³ tomonidan o‘rganilgan.

Mazkur olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda jinoyat tarkibi obyektiv tomonining ayrim belgilari alohida turlari tadqiq etilgan, ammo jinoyat tarkibi obyektiv tomonining nazariy va amaliy jihatlari kompleks tarzda dissertatsiya tadqiqoti darajasida o‘rganilmagan, respublikamizda jinoyat tarkibi obyektiv tomonining nazariy va amaliy jihatlari bo‘yicha kompleks monografik tadqiqot o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktika qilishning innovatsion usul va vositalari” mavzusidagi fundamental loyihasi (2020–2022-y.y.) doirasida bajarilgan.

¹ Ushbu olimlar asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

² Ushbu olimlar asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

³ Ushbu olimlar asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Tadqiqotning maqsadi jinoyat tarkibi obyektiv tomonining nazariy va amaliy jihatlarini kompleks o'rganish asosida aniqlangan muammolarning yechimini topish, Jinoyat kodeksi tegishli normalarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilari to'g'risidagi ta'limotning shakllanishi(genezisi) va rivojlanishi(evolyusiyasi)ni o'rganish;

jinoyat tarkibi obyektiv tomoni tushunchasi va mohiyatiga tavsif berish va ularga oid nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;

jinoyat tarkibi obyektiv tomoni zaruriy va fakultativ belgilarining turlari va ularning tarkibi (tuzilishi)ni tadqiq etish;

jinoyat tarkibi obyektiv tomoni va "actus reus" konsepsiyasini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

jinoyat qilmish(harakat va harakatsizlik)ni, uning oqibatini va ularning tabiati, turlari va tuzilishini o'rganish;

jinoyat huquqida sababiy bog'lanishga oid nazariyalar va ularning muammolarini, sababiy bog'lanishni aniqlash mezoni va qoidalarini tadqiq etish; harakatsizlikdagi sababiy bog'lanish muammolarining yechimlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

jinoyat tarkibi obyektiv tomonining qonunchilikdagi tuzilishi(konstruksiyasi)ni tahlil qilish;

jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilari va ularning turlari bo'yicha qilmishni kvalifikatsiya qilishning nazariy va amaliy masalalarini o'rganish hamda ular bo'yicha qilmishni kvalifikatsiya qilishning asosiy qoidalarini ishlab chiqish;

ayrim xorijiy davlatlar Jinoyat kodekslarida jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilari va ular turlarining xususiyatlarini tadqiq qilish orqali milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish;

jinoyat qonunchiligini takomillashtirish va qonunni qo'llash amaliyotini yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning obyekt jinoyat tarkibi obyektiv tomoni zaruriy va fakultativ belgilarining mohiyatini tushunish va obyektiv tomon belgilariga ko'ra qilmishni kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq jinoyat-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilari qilmishni kvalifikatsiya qilishning zaruriy va javobgarlikni og'irlashtiruvchi (kvalifikatsiyalovchi) holat sifatida nazarda tutilgan milliy va ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonuni normalari, qonunni qo'llash amaliyoti hamda jinoyat huquqi fanida mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalardan iboratdir.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

JKga o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoxud mulkiy manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish uchun javobgarlik belgilangan 128¹-moddani kiritish zarurligi asoslantirilgan;

JKni hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish uchun javobgarlik belgilangan 202¹-modda bilan to'ldirish lozimligi asoslantirilgan;

JKni sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish jarayoniga aralashish uchun javobgarlik belgilangan 232¹-modda bilan to'ldirish haqidagi taklif asoslab berilgan;

JKga insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash uchun javobgarlik belgilangan 115¹-moddasini kiritish zarurligi asoslantirilgan;

JKni inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi uchun javobgarlik belgilangan 133¹-moddasi bilan to'ldirish haqidagi taklif asoslantirilgan;

JKga insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish uchun javobgarlik belgilangan 133²-moddani kiritish lozimligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqilgan;

jinoyat tarkibi obyektiv tomoni va uning belgilari turlariga mualliflik ta'rifi berilgan;

JK VIII bo'lim "Atamalarning huquqiy ma'nosi"da harakat, harakatsizlik va aralash harakatsizlik tushunchalarini yangi tahrirda berish zarurati asoslangan;

JKga 16¹-modda ya'ni, "Jinoyat tarkibi o'zida ijtimoiy xavfli qilmish(harakat yoki harakatsizlik)ni muayyan jinoyat sifatida xarakterlovchi Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan obyektiv hamda subyektiv belgilarning zarur va yetarli majmuini ifodalaydi. Jinoyat tarkibi amaldagi Kodeksning muayyan moddasi bilan jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun huquqiy asos hisoblanadi." shaklidagi normani kiritish zarurati asoslantirilgan;

JK Umumiy qismi 56-moddasini "p) qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, portlash yoki ularga o'xshatib yasalgan moslamalardan foydalangan holda", "r) hokimiyat vakilining xizmat kiyimi yoki hujjatidan foydalangan holda", degan bandlar bilan to'ldirish kerakligi asoslantirilgan;

JK 110-moddasining 2-qismini, ya'ni "g) ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar yoki boshqa muassasalarda yosh bolaning tarbiyasi, o'qishi va sog'lig'i uchun mas'ul bo'lgan xodim tomonidan sodir etilgan bo'lsa", degan mazmundagi band bilan to'ldirish taklifi asoslantirilgan;

ayrim xorijiy davlatlar tajribasi va qonunni qo'llash amaliyotini o'rganish asosida JK 118, 119-moddalarini "o'zida tanosil yoki boshqa yuqumli kasalligi borligini bila turib, bu kasallik jabrlanuvchiga yuqishiga sabab bo'lsa", "o'ta shafqatsizlik bilan sodir etilgan bo'lsa", "badanga og'ir shikast yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa" va "ehtiyotsizlik oqibatida jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lsa", degan bandlar bilan to'ldirish lozimligi asoslab berilgan;

JK 131-moddasining 3-qismini, ya'ni "b) xizmat mavqeidan foydalangan holda; v) ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi yoki boshqa muassasalarda yoxud ko'ngilochar obyektlar joylashgan boshqa joylarda sodir etilgan bo'lsa", degan mazmundagi degan bandlar bilan to'ldirish taklifi

asoslantirilgan;

JK 155-moddasini quyidagi mazmundagi 3-qismni, ya'ni "v) yadroviy, radioaktiv, kimyoviy, biologik, portlovchi, kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalar yoki materiallar va ommaviy qirg'in qurollaridan yoxud portlatish qurilmalardan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa", degan band bilan to'ldirish lozimligi asoslab berilgan;

JKga 227¹-modda, ya'ni "qonunga xilof tarzda avtomototransport vositalarining va ular tirkamalarining (yarim tirkamalarining) davlat raqam belgilari yoxud identifikatsiya raqamlarini tayyorlash, qalbakilashtirish, ularni o'tkazish yoki foydalanish" shaklidagi normani kiritish zarurati asoslantirilgan;

JK 229-moddasining 2- va 3-qismlarini, ya'ni "o'sha harakatlar: a) zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib; b) telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalanib tarqatilgan holda sodir etilgan bo'lsa" va "ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar badanga og'ir shikast yetkazilishiga yoxud boshqa og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa", degan mazmundagi degan bandlar bilan to'ldirish taklifi asoslantirilgan;

JKga 266¹-modda ya'ni, "haydovchi yoki transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan transport vositalarini alkogolli ichimlikdan mast holda yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida boshqarishi, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa" shaklidagi normani kiritish zarurati asoslantirilgan;

JK 266-moddasi 3-qismlarini, ya'ni "o'sha qilmish: g) alkogolli ichimlikdan yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglari yoxud shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostidagi mastlik holatida sodir etilishi natijasida odam o'limga sabab bo'lsa", degan mazmundagi band bilan to'ldirish taklifi asoslantirilgan;

jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilariga oid jinoyat-huquqiy normalarni to'g'ri qo'llash va jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga doir qator tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot olib borishda ilg'or xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan va tavsiya etilgan zamonaviy metodlardan ham foydalanilgan. Nazariy-ilmiy xulosalar xalqaro ilmiy bazalar (<https://www.scholar.google.com>, <https://www.jstor.org>, <https://www.sciencedirect.com>, <https://www.rroquest.com>, <https://heinonline.org>) hamda boshqa rasmiy manbalardan olingan ishonchli ma'lumotlar asosida shakllantirilgan. Toshkent davlat yuridik universiteti tomonidan 2023-yil 3-fevralda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga yuborilgan 7-01/397-15-01-son xatiga asosan <https://docs.google.com> elektron platformasida 500 dan ortiq huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya) va huquqshunoslar (advokat, izlanuvchi va olimlar) o'rtasida anketa so'rovi natijalari va 500 dan ortiq sud hukmlari o'rganilgan; statistik ma'lumotlar tahlil qilinib, umumlashtirilgan va tegishli tartibda rasmiylashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusidagi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, jinoyat qonunchiligining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda jinoyat huquqi, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, ma'muriy javobgarlik fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, jinoyat qonunchiligi normalarini qo'llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida jinoyat huquqi fanini o'qitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish natijalari asosida:

JKni o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoxud mulkiy manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish uchun javobgarlik belgilangan 128¹-moddasi bilan to'ldirish haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-fevraldagi O'RQ-673-sonli "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunining 1-moddasi 2-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2022-yil 27-sentyabrdagi 06/1-05/1445-son ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2022-yil 25-avgustdagi 06/13/45-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi sud amaliyotida o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoxud mulkiy manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilishga to'g'ri huquqiy baho berilishiga, adolatli jazo tayinlanishiga xizmat qilgan;

JKni hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish uchun javobgarlik belgilangan 202¹-modda bilan to'ldirish haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-avgustdagi O'RQ-711-sonli "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasi 2-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2022-yil 27-sentyabrdagi 06/1-05/1445-son ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2022-yil 25-avgustdagi 06/13/45-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lishni oldini olish va aybdor qilmishini sodir etganlik uchun javobgarlik belgilashga xizmat qilgan;

sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish jarayoniga aralashish uchun javobgarlik belgilangan 232¹-moddani JKga kiritish haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-apreldagi O'RQ-762-sonli "Sud

hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasi 2-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2022-yil 27-sentyabrdagi 06/1-05/1445-son ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2022-yil 25-avgustdagi 06/13/45-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif qayd etilgan jinoyatni sodir etganlik uchun javobgarlik belgilash va qilmishni to'g'ri kvalifikatsiyasiga xizmat qilgan;

insonni undan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash uchun javobgarlik belgilangan JK 115¹-moddasi bilan to'ldirish haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 23-iyundagi O'RQ-780-sonli "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunining 1-moddasi 3-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2022-yil 27-sentyabrdagi 06/1-05/1445-son ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2022-yil 25-avgustdagi 06/13/45-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif qayd etilgan jinoyatni aybdor tomonidan sodir etilishini to'g'ri kvalifikatsiya qilinishi va o'sha qilmishga adolatli jazo tayinlanishiga xizmat qilgan;

JKni inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi uchun javobgarlik belgilangan 133¹-modda bilan to'ldirish haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 23-iyundagi O'RQ-780-sonli "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunining 1-moddasi 5-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2022-yil 27-sentyabrdagi 06/1-05/1445-son ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2022-yil 25-avgustdagi 06/13/45-son ma'lumotnomasi). Ushub taklifning qabul qilinishi inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisini oldini olish, aybdor qilmishini sodir etganlik uchun javobgarlik belgilash va adolatli jazo tayinlanishiga xizmat qilgan;

JKga insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish uchun javobgarlik belgilangan 133²-moddani kiritish lozimligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 23-iyundagi O'RQ-780-sonli "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun

hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunining 1-moddasi 5-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasining 2022-yil 27-sentyabrdagi 06/1-05/1445-son ma'lumotnomasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va Korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2022-yil 25-avgustdagi 06/13/45-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish uchun javobgarlik belgilash, qayd etilgan jinoyatni aybdor tomonidan sodir etilishini to'g'ri kvalifikatsiya qilinishi va o'sha qilmishga odillik va insonparvarlik prinsiplari asosida adolatli jazo tayinlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 5 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 36 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 26 ta ilmiy maqola (9 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 260 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirishida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Jinoyat huquqi nazariyasida jinoyat tarkibi obyektiv tomonining nazariy asoslari**" nomli birinchi bobi jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilari to'g'risidagi ta'limotning shakllanishi va rivojlanishi, jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilarining umumiy tavsifi, jinoyat tarkibi obyektiv tomoni va "actus reus" konsepsiyasining qiyosiy-huquqiy tahlili asosida aniqlangan muammolarning yechimiga bag'ishlangan.

Tadqiqotchi M.H.Rustambaev, M.Usmonaliyev, P.Bakunov, Q.Abdurasulova, A.S.Yakubov, O.X.Rasulov, R.Kabulov, A.A.Otajonov, E.O.Turgunboyev, I.A.Sottiyev, T.R.Kuchkarov, X.R.Ochilov, A.N.Traynin, G.V.Timeyko, I.Renneberg, V.N.Kudryavsev, A.V.Naumov, N.A.Lopashenko, A.I.Chuchayev, Inogamovoy-Xegay, A.I.Rarog, A.I.Boyko, V.B.Malinin, A.F.Parfenov

va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar¹ning tahlili asosida jinoyat tarkibining kesik, formal yoki moddiy tarkibli jinoyatlar obyektiv tomonning barcha belgilariga tegishli zaruriy bo'lgan belgi – ijtimoiy xavfli qilmishning mavjudligidir, degan fikrini asoslagan. Jinoiy oqibat, sababiy bog'lanish, jinoyat sodir etish quroli va vositasi jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativ belgilari hisoblanadi. Istisno tariqasida faqat moddiy tarkibli jinoyatlarda jinoiy qilmish, ijtimoiy oqibat va sababiy bog'lanish jinoyat tarkibi obyektiv tomoni zaruriy belgilaridir. Jinoyat sodir etish joyi, vaqti, holati va usuli jinoyat tarkibi obyektiv tomonining mustaqil belgilari va jinoyat sodir etish sharoitlaridir. Har qanday jinoyat muayyan vaqtda, joyda, holatda va usulda sodir etiladi, deb hisoblaydi.

Huquqshunoslar (izlanuvchi va olimlar), sudyalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'rtasida o'tkazilgan so'rovda ishtirok etgan respondentlarning 70 % jinoyat sodir etish vaqti, joyi va usuli shart-sharoit bo'lib, qilmishni kvalifikatsiya qilishda bevosita ta'sir qilishini ko'rsatganligi ham ularni jinoyat tarkibi obyektiv tomonning mustaqil belgisi(shart-sharoitlari), deb hisoblash uchun asos bo'lgan.

Muallif jinoyat huquqi nazariyasidagi jinoyat tarkibi to'g'risidagi kotsepsiyalar("ilmiy abstraksiya", "real jinoyat tarkibi", "normativ yoki qonunchilik modeli") va jinoyat tarkibiga bag'ishlangan taqiqotlar(N.S. Tagansev, A.N.Traynin, V.N.Kudryavsev, N.F.Kuznesova, A.I.Boyko, A.I.Rarog, A.N.Ignatov, I.Ya.Gontar, Ye.O.Filippova, Yu.E.Pudovochkin, D.A.Dorogin, George P.Fletcher, O.X.Rasulov, M.X.Rustambayev, A.S.Yakubov, M.Usmonaliyevning) hamda xorijiy mamlakatlar(Germaniya, Moldova va boshqalar) jinoyat qonunchiligining tadqiqi natijasida JK Umumiy qismiga "Jinoyat tarkibi" deb nomlangan yangi 16¹-moddani kiritish lozimligini asoslagan.

Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan so'rovda JK Umumiy qismiga "Jinoyat tarkibi" oid norma kiritish zarurati bormi?, degan savolga sudyalarning 65.4% bunday normani kiritish kerakligini; 34.6% bunday norma kiritishga zarurat yo'qligini; O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarning 57% bunday normani kiritish zarurligini, 43% kiritish zarurati yo'qligini; surishtiruvchilar va tergovchilarining 78% kiritish zarurligini, 22% kiritish zarur emas, deb hisoblashlarini bildirishgan. Ushbu savol bo'yicha amaliyot xodimlari fikrlari hamda xorijiy mamlakatlar(Germaniya, Moldova va boshqalar) jinoyat qonunchiligini tadqiq qilish natijasida muallif JK Umumiy qismiga "Jinoyat tarkibi" deb nomlangan yangi 16¹-modda bilan to'ldirish zaruratini asoslagan:

"Jinoyat tarkibi o'zida ijtimoiy xavfli qilmish(harakat yoki harakatsizlik)ni muayyan jinoyat sifatida xarakterlovchi Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan obyektiv hamda subyektiv belgilarning zarur va yetarli majmuini ifodalaydi.

Jinoyat tarkibi amaldagi Kodeksning muayyan moddasi bilan jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun huquqiy asos hisoblanadi."

¹ Ushbu olimlar asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Dissertant jinoyatning moddiy belgisi bo'lgan ijtimoiy xavflilik, uning xususiyati va darajasi aynan jinoyat tarkibi obyektiv tomon belgilari orqali aniqlanishi va ushbu belgilarga asosan JK Maxsus qismi normalarining dispozitsiyalari shakllantiriladi, degan fikrni ilgari surib, o'z fikrini quyidagilar bilan asoslantiradi: 1) obyektiv tomon belgilari asosida JK Maxsus qismi normalarining dispozitsiyalari shakllantiriladi va ular jinoiy javobgarlikka tortishning obyektiv asosidir; 2) jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati odatda tajovuz obyekti va obyektiv tomon belgisi bo'lgan jinoiy oqibat bilan belgilansa, uning ijtimoiy xavflilik darajasi qilmishning sodir etilish holatlari: asosan jinoyatning sodir etish usuli, zarar miqdori yoki kelib chiqqan oqibatlarning og'irligi bilan belgilanadi; 3) muayyan holatda obyektiv tomonning zaruriy belgisi bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmish(harakat yoki harakatsizlik)ning mavjud emasligi, jinoyat tarkibining ham mavjud emasligini anglatadi; 4) har qanday jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilarini aniqlash jinoyatni kvalifikatsiya qilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi; 5) jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilariga tayanib, jinoyat tarkibining boshqa elementlari va belgilari aniqlanadi; 6) jinoyat tarkibi obyektiv tomoni u yoki bu belgilarining mavjudligi sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasiga ta'sir qiladi va ularga tayanib o'xshash tarkibli jinoyatlar bir-biridan farqlanadi; 7) obyektiv tomonning belgilariga asoslanib, jinoiy qilmishning tamom bo'lish payti aniqlanadi; 8) aynan jinoyat tarkibi obyektiv tomonining qonun normasi dispozitsiyasidagi tuzilishi, boshqa ko'plab jinoyat-huquqiy masalalarni, masalan, jinoyatda ishtirokchilik, dastlabki jinoiy faoliyat, jinoyatdan ixtiyoriy qaytish kabilarning hal qilinishiga xizmat qiladi; 9) jinoyat obyektiv tomonining barcha belgilarini aniqlamasdan turib, adolatli jazo tayinlanishi mumkin emas.

Dissertatsiyaning **“Jinoiy qilmish va uning oqibatini o'rganishning metodologik asoslari”**ga bag'ishlangan ikkinchi bobda jinoiy harakat ijtimoiy xavfli xulq-atvorning shakli sifatida: umumiy va maxsus belgilar munosabati, jinoiy harakatsizlik ijtimoiy xavfli xulq-atvorning shakli sifatida: aralash harakatsizlik va uning muammolari, jinoiy oqibatning tabiati, tuzilishi, uning ro'y berishi va turlari tahlil qilinib, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning ayrim masalalari tadqiq etilgan.

Dissertant ushbu bobda jinoiy qilmish(harakat yoki harakatsizlik)ning quyidagi belgilarini tavsiflagan: 1) jinoiy harakatning umumiy belgilari: onglilik; irodaviylik; ixtiyoriylik; tashqi faol(aktiv)lik; murakkab xususiyatlilik (muayyan maqsadga erishish uchun foydalanilgan tabiat, tashqi obyektiv qonuniyatlari va kuchlari yig'indisidan iborat); uning maxsus belgilari: ijtimoiy xavflilik (moddiy belgisi); huquqqa xiloflilik (yuridik belgisi); 2) jinoiy harakatsizlikning umumiy belgilari: onglilik; irodaviylik; ixtiyoriylik; tashqi nofaol(passiv)lik; murakkab xususiyatlilik (muayyan jinoiy oqibat ro'y berishida tabiat, tashqi obyektiv qonuniyatlari va kuchlarining ishtiroki); uning maxsus belgilari: ijtimoiy xavflilik (moddiy belgisi); huquqqa xiloflilik (yuridik belgisi).

Tadqiqotchi jinoiy harakatsizlikda shaxsni javobgarlikka tortish uchun uning obyektiv(normativ huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan majburiyatlar) va subyektiv (majburiyatlarni bajara olishning real imoniyati) mezonlari bo'lishi

lozim, degan xulosaga kelgan va ijtimoiy xavfli harakatsizlikning obyektiv mezonlarini quyidagicha tasniflagan: 1) ularning qonunda nazarda tutilgan, ya'ni jinoyat qonunchiligi yoki normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanganligi; 2) xizmat, kasb yoki mansab vazifasi va majburiyatlari; 3) sudning qarori bilan shaxsga turli xil majburiyatlarni bajarishning yuklatilganligi; 4) jabrlanuvchini muayyan xavfli ahvolga solib qo'ygan shaxsning unga yordam berishi shartligi.

Muallif mavzuga oid o'tkazilgan tadqiqotlarni o'rganish natijasida ijtimoiy xavfli harakatsizlik ikki turga ajratilgan: – sof harakatsizlik; – aralash harakatsizlik. “Sof” harakatsizlikka JK 221 va 279-moddalarida javobgarlik belgilangan jinoyatlarni keltirish mumkin. Bunda qonunda belgilangan harakatni bajarmaslik, ijtimoiy xavfli oqibat ro'y bergan yoki bermaganligidan qat'i nazar, jinoyat sodir etilgan hisoblanadi. “Aralash” harakatsizlikka JK 260 va 266-moddalaridagi qilmishlarni keltirish mumkin, degan xulosaga kelingan.

Dissertant jinoiy harakatsizlikka bag'ishlangan tadqiqotlar (M.H.Rustambayev, M.Usmonaliyev, P.Bakunov, G.V.Timeyko, N.D.Durmanov, V.B.Malinin, N.Panov, A.I.Boyko, George P.Fletcher, U.S.Djekebayev va boshqa olimlarning asalari)¹ni o'rganib, jinoiy harakatsizlik uchun javobgarlik asoslari: faktik, yuridik(huquqiy) va subyektivdir; yuridik asos – shaxsning normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifa va majburiyatlarini bajarmaganligi, bajarishga qaratilgan harakatlarni sodir etmaganligi; faktik asos – shaxsning qonunda belgilangan va yuklatilgan majburiyatlarni obyektiv haqiqatda aniq bajarmaganligi; subyektiv asos – shaxsda biror-bir majburiyatni bajarishning real imkoniyati mavjud ekanligi asoslangan. Ulardan birining mavjud emasligi harakatsizlik uchun jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydi. Jinoiy harakatsizlikda harakatni bajarish majburiyati boshqa bir harakatni bajarish majburiyati bilan chegaralansa, ushbu qarama-qarshilik oxirgi zaruratga oid (JK 38-moddasi) qoidalar bilan tartibga solinishi lozim, degan xulosaga kelingan.

Muallif ijtimoiy xavfli oqibatni tasniflashning asoslari tufayli jinoyat huquqida ularni tizimlashtirish muammosi mavjudligini aytib, ayrim mualliflarning fikrlari tanqidiy tahlil qilinib, jinoyat-huquqiy oqibatni faqat moddiy va nomoddiy turlarga bo'linishidan tashqari uni quyidagi mezonlarga qarab guruhlariga bo'lishni taklif qiladi: 1) *yetkazilgan zararning tabiatiga ko'ra*: moddiy(jismoniy va mulkiy zarar ko'rinishidagi) va nomoddiy(real ziyon ko'rinishidagi nomoddiy zarar (JK 144-m. va b.q.lar) va zarar yetkazishning real xavfi ko'rinishidagi oqibat (JK 113-m. va b.q.lar)); 2) *yetkazilgan zararning xavflilik darajasiga ko'ra*: jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida ifodalangan oqibat (JK 266-m. va b.q.lar) va jinoyat tarkibining javobgarlikni og'irlashtiruvchi (kvalifikatsiyaviy) belgisi sifatida nazarda tutilgan oqibat (JK 266-m. 2- va 3-q.lari); 3) *jinoyat qonunchiligida belgilanganiga ko'ra*: aniq qilib belgilangan oqibat (JK 97-103¹-m.lar, 104-m. 3-q. “d” b., 106-m. va b.q.lar) va baholanuvchi oqibat (“mulkiy zarar yetkazish”, “ancha miqdor”, “ko'p miqdor”, “juda ko'p miqdor”, “ancha miqdordagi zarar”, “ko'p miqdordagi zarar”, “juda ko'p miqdordagi zarar”, “jiddiy zarar”, “jiddiy ziyon”, “og'ir oqibat”, “boshqacha og'ir oqibat”); 4) *qilmishni*

¹ Ushbu olimlar asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatiga ko'ra: majburiy (JK 115-m. va b.q.lar) va qo'shimcha (JK 164-m. 3-q. "g" b. va b.q.lar).

Dissertatsiyaning **"Jinoyat huquqida sababiy bog'lanishni o'rganishning metodologik asoslari"** nomli uchinchi bobida jinoyat huquqida sababiy bog'lanish va uning determinizm bilan o'zaro munosabati, sababiy bog'lanish haqidagi nazariyalar va ularning muammolari, harakatsizlikda sababiy bog'lanish muammolari ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiyada jinoyat qonunchiligi va sud amaliyotida jinoiy qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishning obyektivligidan kelib chiqiladi va jinoiy qilmish va oqibat o'rtasida har doim obyektiv ketma-ketlik mavjud bo'ladi, degan yondashuv moddiy tarkibli jinoyatlarning zaruriy belgisi bo'lmish sababiy bog'lanishning mohiyatini ochib berishga yordam beradi, degan g'oya ilgari surilgan. Jinoyat huquqi sohasidagi mutaxassislar va olimlar doimo sababiyatning obyektiv xususiyatini tan olib kelishadi. Jinoyat huquqida sababiy bog'lanishga berilgan ta'riflar ikkita tamoyilga asoslangan bo'lib, ular o'z xususiyatiga ko'ra metodologik ahamiyat kasb etadi. Birinchi tamoyil hodisalarni sun'iy ravishda ajratib olish (izolyatsiya qilish "but-for test") tamoyili bo'lsa, ikkinchisi esa sababiy bog'lanishni aniqlashda aqliy istisno qonun-qoidasi hisoblanadi.

Muallif sababiy bog'lanishning murakkabligi bois jinoyat huquqi nazariyasida ba'zi olimlar, ko'p hollarda sababiy bog'lanishga oid nazariyalar va konsepsiyalarni chalkashtirib yuborganligini ta'kidlaydi va sababiy bog'lanishga oid quyidagi nazariyalar va konsepsiyalarni: 1) *ekvivalentlik nazariyasi* ("*Conditio sine qua non*" – "*zaruriy shartsiz vaziyat, oqibat yo'q...*"); 2) *adekvatlik nazariyasi*; 3) *bosh sabablar nazariyasi*; 4) *sabablar va sharoitlar nazariyasi*; 5) *bevosita sababiylik nazariyasi*; 6) *zaruriy va tasodifiy sababiy bog'lanish nazariyasi*; 7) "*kiruvchi kuchlar*" nazariyasi; 8) *ehtimoliy sababiy bog'lanish nazariyasi*; 9) *imkoniyat va voqelik nazariyasi*; 10) "*ichki sababiyat*" nazariyasi; 11) "*aybga daxldorlik*" nazariyasi; 12) *zaruriy shartlar nazariyasiga* ajratgan.

Dissertant jinoyat huquqi nazariyasi va ilmiy tadqiqotlarda yuqoridagi nazariyalarning barchasi qo'llab-quvvatlanmasligi va ba'zilari rad etilishini ham ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi jinoyat huquqi nazariyasi va qonunni qo'llash amaliyotida sababiy bog'lanish muammosini hal etish uchun quyidagi qoidalar va prinsiplarni qo'llanishga oid taklif va tavsfiyalarni ilgari suradi:

1) jinoiy qilmish–vaqt–ijtimoiy xavfli oqibat qoidasi; 2) hodisalarning sun'iy izolyatsiyasi("but-for test") prinsipi; 3) "oqibat–qilmish" prinsipi; 4) " mantiqiy istisno va inkor" qoidasi.

Ushbu bobda jinoyat huquqida sababiy bog'lanish nazariyalari va konsepsiyalarini tahlil qilish asosida jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega sababiy bog'lanishning quyidagi belgilari va mezonlarini ishlab chiqilgan:

1) jinoyat-huquqiy sababiy bog'lanishning belgilari: a) qilmish va oqibatning ijtimoiy xavfli hamda huquqqa xilofligidan kelib chiqqan sababiy bog'lanish; b) obyektivlik; d) hodisalar o'rtasidagi umumiy sababiy aloqaning qismi; g) "sabab-oqibat" (sababning doimo oqibatdan oldin kelishi); e) zaruriy sababiy

bog‘lanish;

2) jinoiy qilmish va ijtimoiy xavfli oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish:

a) vaqt bo‘yicha muvofiqlik; b) qilmishning oqibatni keltirib chiqarish real imkoniyatiga egaligi; d) qilmish tufayli oqibatning ro‘y berganligi bosh va bevosita sabab ekanligi; e) oqibatning har qanday qilmish emas, balki aynan sodir etilgan qilmish tufayli ro‘y berganligi; f) jinoiy qilmishsiz ijtimoiy xavfli oqibat ro‘y bermasligi.

Dissertatsiyaning **“Jinoyat tarkibi obyektiv tomoni bo‘yicha qilmishni kvalifikatsiya qilishning nazariy, amaliy masalalari va ular bog‘liq JK normalari takomillashtirish”**ga bag‘ishlangan to‘rtinchi bobida jinoyat tarkibi obyektiv tomonining qonunchilikdagi konstruksiyasi, jinoyat tarkibi obyektiv tomoni belgilari va ularning turlari bo‘yicha qilmishni kvalifikatsiya qilishning asosiy qoidalari, jinoyat tarkibi obyektiv tomoni bilan bog‘liq JK Umumiy va Maxsus qismi normalari takomillashtirish istiqbollari o‘rganilgan.

Dissertant jinoyat tarkibi obyektiv tomonining qonunchilikdagi konstruksiyasini tahlil qilib, qilmishni kvalifikatsiya qilishda jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan jinoyat tarkibi obyektiv tomonining quyidagi belgilarini tavsiflagan:

1) *jinoyat qonunchiligida ijtimoiy xavfli qilmishning ifodalanish tavsifi:*

a) jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning xususiyati va muayyan ro‘yxati JK Maxsus qismi moddalarida dispozitsiyasida to‘liq ifodalanishi; b) jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) tavsifi JK Maxsus qismi moddalarida dispozitsiyasida nazarda tutilmasdan, jinoyat-huquqiy oqibatning ifodalanishi; d) jinoiy qilmish(harakat yoki harakatsizlik) tavsifining blanket dispozitsiyada ifodalanishi; e) jinoiy qilmish(harakat yoki harakatsizlik)ning qonun chiqaruvchi tomonidan havolaki dispozitsiyada ifodalanishi; f) jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning JK Maxsus qismi moddalarida dispozitsiyasida alternativ (muqobil) shaklda ifodalanishi; g) jinoiy qilmishning asosiy va zaruriy ikki harakat shaklida JK Maxsus qismi moddalarida dispozitsiyasida ifodalanishi;

2) *jinoyat qonunchiligida ijtimoiy xavfli harakatsizlikning ifodalanish tavsifi:*

a) jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan harakatsizlik; b) xizmat, kasbiy yoki mansab vazifalari va majburiyatlarini bajarmaslik; d) sudning qarorida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik; e) aybdorning harakatlari tufayli yuzaga kelgan majburiyatlarni bajarmaslik; f) JK Maxsus qismi normasida harakatsizlikning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanmaganligi; g) JK Maxsus qismi normasida harakatsizlikning muayyan oqibatlarsiz ifodalanishi yoki uning muayyan oqibatlarning kelib chiqish sababi sifatida ifodalanishi; h) JK Maxsus qismi normasida harakatsizlik muayyan turlarining ifodalanishi;

3) *jinoyat qonunchiligida ijtimoiy xavfli oqibatning ifodalanish tavsifi:*

a) xususiyati va darajasi(og‘irligi) aniq ko‘rsatilgan jinoyat-huquqiy oqibat; b) baholovchi tushunchalar yordamida ifodalangan jinoyat-huquqiy oqibat (“mulkiy zarar yetkazish”, “ancha miqdor”, “ko‘p miqdor”, “juda ko‘p miqdor”, “ancha miqdordagi zarar”, “ko‘p miqdordagi zarar”, “juda ko‘p miqdordagi zarar”, “jiddiy zarar”, “jiddiy ziyon”, “og‘ir oqibat”, “boshqacha og‘ir oqibat”); d) xususiyati va darajasi(og‘irligi) alternativ(muqobil) ko‘rsatilgan jinoyat-huquqiy

oqibat; e) xususiyati va darajasi(og'irligi) bo'yicha jinoyat qonunchiligida ro'yxati keltirilgan jinoyat-huquqiy oqibat; f) xususiyati va darajasi(og'irligi) bo'yicha jinoyat qonunchiligida vujudga kelish real xavfi mavjud bo'lgan jinoyat-huquqiy oqibat; g) xususiyati va darajasi(og'irligi) bo'yicha jinoyat qonunida nazarda tutilgan asosiy va qo'shimcha jinoyat-huquqiy oqibat;

4) *qilmishni kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibi obyektiv tomoni fakultativ belgilarining "an'anaviy uchligi"*:

1) qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilari JK Maxsus qismi muayyan moddasi dispozitsiyasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilganligi;

2) jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining JK Maxsus qismi muayyan moddasida jinoyat tarkibi (obyektiv tomon)ning javobgarlikning og'irlashtiruvchi (kvalifikatsiyaviy) zaruriy belgi sifatida nazarda tutilganligi;

3) jinoyat qonunida jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativ belgilari jazoni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holat sifatida (JK 55-56-moddalarida) nazarda tutilganligi asoslangan.

Ushbu bobda jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining o'ziga xos "uchlik" deb nom olgan jinoyat-huquqiy ahamiyatining dastlabki ikkitasi qilmishning kvalifikatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatishi isbotlangan.

Dissertant JK VIII bo'limi "Atamalarning huquqiy ma'nosi"da *aralash harakatsizlikka* ta'rif berilishi lozimligini, shuningdek, harakatga berilgan ta'rifda *huquqqa xiloflik, irodaviylik va murakkab xususiyatga egalik* belgilari, harakatsizlik ta'rifida esa majburiyatlarda bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni real imkoniyatga ega bo'la turib bajarmaslik, ya'ni javobgarlikka tortishning *subyektiv mezoni* berilmaganini tanqid qilib, AQSh (Nyu Djersi jinoyat odil sudlov kodeksi 2-bob), Germaniya, Kanada va boshqa xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida ushbu qoidaning ifodalanganligini asos sifatida keltirgan.

Sudyalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, izlanuvchi va olimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovda JK VIII bo'limi "Atamalarning huquqiy ma'nosi"da *aralash harakatsizlik* tushunchasi berilishi va harakatga berilgan ta'rifda *huquqqa xiloflik, irodaviylik va murakkab xususiyatga egalik* belgilari, harakatsizlik ta'rifida esa majburiyatlarda bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni real imkoniyatga ega bo'la turib bajarmaslik, ya'ni javobgarlikka tortishning subyektiv mezoni ifodalanishiga zarurat bormi? degan degan savolga ishtirok etgan respondentlarning 74.8% foizi bunday belgilarni kiritish kerakligini; 17.9% bunday belgilarini kiritish zarur emas, degan fikrni bildirgan.

Muallif jinoyatni sodir etishda *"qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, portlash yoki ularga o'xshatib yasalgan moslamalardan foydalanish"* yoki *"hokimiyat vakilining xizmat kiyimi yoki hujjatidan foydalanish"*ni og'irlashtiruvchi belgi sifatida JK 56-moddasidagi jazoni og'irlashtiruvchi holatlar ro'yxatiga kiritilmaganini tanqid qilib, AQSh, Kanada, Germaniya, Fransiya, Yaponiya jinoyat qonunchiligi, Estoniya JK (Penitensiar kodeksi) 58-modda 11-bandi, RF JK 63-moddasi 1-qismi "k", "n" bandi,

Qozog‘iston JK 54-modda 1-qismi 10, 15-bandi, Tojikiston JK 62-modda 1-qismi “1” bandi; Ozarbayjon JK 61-modda 61.1.12. bandida jinoyatni qurol, jangovar yarog‘lar (o‘q dorilar), portlovchi moddalar, portlatuvchi yoki ularga o‘xshatib yasalgan moslamalar, maxsus tayyorlangan texnik vositalar, zaharli yoki radioaktiv moddalar, dori yoki boshqa kimyoviy-farmakologik preparatlardan yoki hokimiyat vakilining xizmat kiyimi yoxud hujjatidan foydalanib sodir etilganligi, jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar sifatida e‘tirof etilganligini asos sifatida keltirgan.

Sudyalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, izlanuvchi va olimlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovda yuqoridagi jinoyat sodir etish qurolini JK Umumiy qismi 56-moddasidagi “Jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar”ga yoki JK Maxsus qism ayrim moddalarida nazarda tutilgan jinoyatning javobgarlikni og‘irlashtiruvchi belgisi sifatida unga kiritish zarurati bormi? degan savolga ishtirok etgan respondentlarning 76.6% foizi bunday normani kiritish kerakligini; 16% bunday norma kiritish zarur emas, degan fikrni bildirgan.

Dissertatsiyada qonunchilik normalari, qonunni qo‘llash amaliyoti, sotsiologik tadqiqotlar, statistik ma‘lumotlar tahlili va xorijiy davlatlar tajribasi tahliliga asoslanib muallif jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgilari bo‘yicha JK 110-m. 2-q., 118-119-m.lar 2- va 4-q.lari, 131-m. 3-q., 155-m. 3-q., 164-m. 3-q. “v.” b., 166-m. 3-q. “b” b., 169-m. 3-q. “v” b., 266-m. 3-q.larini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

1. JK 110-m. 2-q. “Qiyinash: g) *ta’lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar yoki boshqa muassasalarda yosh bolaning tarbiyasi, o‘qishi va sog‘lig‘i uchun mas’ul bo‘lgan xodim tomonidan sodir etilgan bo‘lsa*”;

2. JK 118-119-m.lar 2-q. “e) *o‘zida tanosil yoki boshqa yuqumli kasalligi borligini bila turib, bu kasallik jabrlanuvchiga yuqishiga sabab bo‘lsa; j) o‘ta shafqatsizlik bilan sodir etilgan bo‘lsa; z) badanga og‘ir shikast yetkazgan holda sodir etilgan bo‘lsa*”;

3. JK 118-119-m.lar 4-q. “a) *o‘n to‘rt yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan; b) ehtiyotsizlik oqibatida jabrlanuvchining o‘limiga sabab bo‘lsa*”;

4. JK 131-m. 3-q. “Qo‘shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash: a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib; b) *xizmat mavqeidan foydalangan holda; v) ta’lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi yoki boshqa muassasalarda yoxud ko‘ngilochar obyektlar joylashgan boshqa joylarda sodir etilgan bo‘lsa.*”;

5. JK 155-m. 3-q. “Terrorizm: v) *yadroviy, radioaktiv, kimyoviy, biologik, portlovchi, kuchli ta’sir qiluvchi zaharli moddalar yoki materiallar va ommaviy qirg‘in qurollaridan yoxud portlatish qurilmalardan foydalangan holda sodir etilgan bo‘lsa*”;

6. JK 229-m. 2- va 3-q. “O‘sha harakatlar: a) *zo‘rluk ishlatib yoki zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitib; b) telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalanib tarqatilgan holda sodir etilgan bo‘lsa*”. Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar badanga og‘ir shikast yetkazilishiga yoxud boshqa og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa”;

7. JK 266-m. 3-q. “g) *alkogolli ichimlikdan yoki giyohvandlik vositalari,*

psixotrop moddalar yoki ularning analoglari yoxud shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostidagi mastlik holatida sodir etilishi natijasida odam o'limga sabab bo'lsa";

Ushbu bobda avtomototransport vositalari va ular tirkamalari (yarim tirkamalari)ning davlat raqam belgilarini egallash, nobud qilish, ularga shikast yetkazish yoki ularni yashirish uchun JK 227-moddasida javobgarlik bo'lgilangan bo'lsada, ularni qonunga xilof ravishda tayyorlaganlik, qalbakilashtirganlik, sotganlik yoki undan foydalanganlik uchun jinoyat qonunchiligida javobgarlik mavjud emasligi, davlat raqam belgisi yasama yoki o'zga usullarda o'zgartirilgan transport vositalarini, xuddi shuningdek davlat raqam belgisi ayni shu transport vositasiga tegishli bo'lmagan transport vositasini boshqarish uchun MJtK 125-moddasi 6-qismida ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsada, ayrim fuqarolar tomonidan jinoyat sodir etish yoki jinoyat izlarini yashirish maqsadida, shuningdek, foto va video qayd etish texnika vositalariga qayd etilmaslik maqsadida davlat raqam belgilari yoki identifikatsiya raqamlarini qonunga xilof ravishda tayyorlash, qalbakilashtirish yoki ulardan foydalanish uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi zarurati asoslanib, JKga *"Avtomototransport vositalarining va ular tirkamalari (yarim tirkamalari)ning davlat raqam belgilari yoxud identifikatsiya raqamlarini tayyorlash, qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish"* degan mazmundagi yangi 227¹-moddani kiritish taklif qilingan va shunday norma Rossiya Federatsiyasi JK 326-moddasida, Moldova JK 276-moddasida, Armaniston JK 325-moddasida, Belorussiya JK 381-moddasida, Qozog'iston JK 386-moddasida va boshqa qator MDH davlatlari) jinoyat qonunchiligida aks etganligini ta'kidlagan.

Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan so'rovda JKga yangi 227¹-moddasini kiritish zarurati bormi?, degan savolga sudyalari, prokurorlar, surishtiruvchilar, tergovchilar, professor-o'qituvchilarning 72,2% bunday moddani kiritish kerakligini, 23,4% bunday modda kiritish zarur emas, deb hisoblashlarini bildirishgan.

Dissertatsiyada transport vositasini mast holda boshqarganlik uchun MJtK 131-moddasida ma'muriy javobgarlik belgilangan bo'lsada, tegishli normativ-huquqiy hujjatda nazarda tutilgan qoidalarni mensimasdan transport vositasini takroran mast holda, ya'ni alkogolli ichimlik yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida mast holda boshqarishi og'ir oqibatli yo'l-transport hodisalarining sodir bo'lishiga sabab bo'layotganligi, shuningdek, MJtK 131-moddasi bo'yicha Respublikada jami 2019 yilda – 26814 ta ish, 2020 yilda – 23063 ta ish, 2021 yilda – 25680 ta ish, 2022 yilda – 23960 ta ish, 2023 yil 9 oyida – 9912 ta ish ko'rilgan¹ligi fuqarolarning takroran mast holda transport vositasini boshqarishi bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari natijasida ko'plab fuqarolar jarohatlangan yoki halok bo'lganligi O'zR MJTK 131-moddasida nazarda tutilgan jazo choralari ushbu huquqbuzarliklarning oldini olish uchun yetarli emasligini, mazkur qilmishni takroran sodir etganlik uchun AQSh, Kanada JK VIII bob

¹ <https://stat.sud.uz>

320.14 (1)da, Germaniya JK 4-titul 28-bo'lim, 315s-bobda, Yaponiya JK 2-4-moddalarda, Rossiya JK 264.1-moddasida, Belorussiya JK 317-1-moddasida, Qozog'iston JKning 346-moddasida jinoiy jazo choralari nazarda tutilganligi bois asoslagan.

“Transport vositasini mast holda boshqarish: Haydovchi yoki transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan transport vositalarini alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar ta'siri ostida o'zgacha tarzda mast holda boshqarishi, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa” degan mazmundagi yangi 266¹-moddani JKga kiritish zarurati mavjudligi isbotlangan.

Tadqiqotchi amaliyotda aksariyat qasddan odam o'ldirishning nomusga tegish bilan bog'liq holda sodir qilinayotganligini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Qasddan odam o'ldirishga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi qarorining 13-bandida “Sudlar shuni inobatga olishlari kerakki, nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda qasddan odam o'ldirishi, faqat aybdor nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirishga va o'lim kelib chiqishi tariqasidagi oqibatga nisbatan to'g'ri qasd ko'rinishidagi ayb mavjud bo'lgandagina JK 97-moddasi ikkinchi qismining “z” bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bunda, qilmishni shu taqlid kvalifikatsiya qilish uchun nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda kelib chiqqan o'lim o'rtasida sababiy bog'lanish borligi aniqlanishi shart” degan tushuntirish berilishini taklif qilgan.

O'rganilgan jinoyat ishi materiallarining tahlili bugungi kunda nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda qasddan odam o'ldirish jinoyatida ijtimoiy xavfli qilmish va o'lim kelib chiqishi tariqasidagi oqibatga nisbatan to'g'ri qasd ko'rinishidagi ayb mavjudligi 52 %ni tashkil etishini ko'rsatdi¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”gi qarorining 3-bandida “Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish paytida jabrlanuvchiga yengil, o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishi tegishlicha JK 118-moddasi yoki 119-moddasi dispozitsiyasi bilan qamrab olinadi va JK 104, 105, 109-moddalari bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi. Agar nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish paytida jabrlanuvchiga og'ir shikast yetkazilsa, aybdorning harakatlari JK 118-moddasi yoki 119-moddasi 2-qism “z” bandi bilan qamrab olinadi va JK 104-moddalari bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi” degan tushuntirish berilishini taklif qilgan.

O'rganilgan jinoyat ishi materiallarining tahlili bugungi kunda nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish paytida jabrlanuvchiga yengil shikast yetkazilishi 77 %ni, o'rtacha og'ir shikast yetkazilishi 79 %ni yoki

¹ <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>

og'ir shikast yetkazilishi 87 %ni, tashkil etishini ko'rsatdi¹.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining yuqoridagi qarorlari tegishli bandlariga taklif qilingan tushuntirishlarning berilishi Jinoyat kodeksining qonuniylik, odillik, insonparvarlik va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplarini amalda to'g'ri qo'llanishiga olib keladi.

XULOSA

“Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining nazariy va amaliy jihatlari” mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Jinoyat tarkibi tushunchasining vujudga kelishi va tarixiy rivojlanishning barcha bosqichlarida (Rim huquqida “corpus delicti” (jinoyat tarkibi)ni aniqlashda yettita asosiy bandni o'zini ichiga oluvchi sxema (“Quis, quid, ubi, quando, cur, quomodo, quibus auxiliis”), nemis klassik jinoyat huquqida “Handlung oder Tatsache” (harakat yoki fakt), jinoyat (Verbrechen) va jinoyat tarkibi (Tatbestand) konsepsiyalari, jinoyat tarkibi to'g'risidagi “ilmiy abstraksiya”, “real jinoyat tarkibi”, “normativ yoki qonunchilik modeli” konsepsiyalari shakllanishida) jinoyat obyektiv tomoni belgilari markaziy o'rinni egallagan. Jinoyat tarkibi to'g'risidagi ta'limot shakllanishi(genezisi) va rivojlanishi, uning evolyusiyasida jinoyat obyektiv tomoni belgilari asosiy ekanligi bois *jinoyat tarkibi yadrosini jinoyat obyektiv tomoni belgilari* tashkil qiladi. Jinoyat tarkibining boshqa elementlari va belgilari jinoyat obyektiv tomoni belgilariga qarab aniqlanadi.

2. Jinoyat huquqi nazariyasi va jinoyat qonunchiligini o'rganish natijasida jinoyat tarkibi obyektiv tomonining quyidagi nazariy jihatlari asoslandi:

1) har qanday jinoyat tarkibi obyektiv tomoning yagona zaruriy belgisi *ijtimoiy xavfli qilmish(harakat yoki harakatsizlik)*dir. Jinoiy oqibat, sababiy bog'lanish, jinoyat sodir etish quroli va vositasi *jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativ belgilari* hisoblanadi, faqat moddiy tarkibli jinoyatlarda jinoiy qilmish, ijtimoiy oqibat va sababiy bog'lanish jinoyat tarkibi obyektiv tomoni zaruriy belgilaridir;

2) jinoyat sodir etish joyi, vaqti va usuli har qanday jinoyat tarkibi va uning elementi bo'lgan jinoyat tarkibi obyektiv tomonining mustaqil belgisidir. Har qanday jinoyat muayyan vaqtda, joyda, holatda va usulda sodir etiladi. Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining mustaqil belgisi sifatida ularning jinoyat-huquqiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

jinoyat sodir etish joyi va vaqti jinoiy javobgarlikka tortishning umumiy shartlaridan biridir; *jinoyat sodir etish joyi* JK Maxsus qismi muayyan moddasi dispozitsiyasida nazarda tutilmagan bo'lsada, ba'zi jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga bevosita ta'sir qiladi; u jinoiy niyatning amalga oshirilganlik darajasi, bosqichlari va jinoyatning tamom bo'lgan paytini aniqlab beradi; u JK Maxsus qismi muayyan moddasida nazarda tutilgan usulni aniqlaydi va mazkur jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilinishga bevosita ta'sir qiladi; u ayrim

¹ <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>

qilmishlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyat subyektiv tomonining zaruriy belgisi bo'lgan ayb va uning shakllarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi; *jinoyat sodir etish vaqti* formal, kesik, moddiy tarkibli, davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarning tamom bo'lgan paytini aniqlab beradi; *jinoyat sodir etish usuli* ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikning tashqi ifodalanish shaklidir. Usul mazmunni shakldan ajratib bo'lmagani kabi jinoiy harakat(harakatsizlik) bilan ham bir butun tizimda, bog'liqlikda bo'ladi. Har qanday jinoiy harakat (harakatsizlik) muayyan usul orqali sodir etiladi. Usul jinoiy harakat(harakatsizlik)ni tavsiflaydi.

3. Jinoyat tarkibi obyektiv tomoni va uning belgilariga quyidagicha mualliflik ta'rifi berilgan:

a) jinoiyat tarkibi obyektiv tomoni jinoiy tajovuzning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasini ifodalaydigan, aniq joy, vaqt va holatlar sharoitlarida muayyan usulda, ba'zan qurol yoki boshqa vositalardan foydalanib sodir etilib, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigin ob'ektga zarar yetkazadigan, ba'zan moddiy tarkibli jinoyatlarda zararli oqibat keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof qilmish(harakat yoki harakatsizlik)ning tashqi belgilarini o'zida ifodalaydigan, tavsiflaydigan obyektiv, ijtimoiy, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan, muhim, yetarli va zarur belgilar yig'indisidan iborat jinoyat tarkibi tashqi tomoni(elementi)dir;

b) jinoyat sodir etish vaqti jinoyat sodir etilishi mumkin bo'lgan, sekund, minut, soat, sutka, oy kabi vaqt birliklari bilan o'lchanadigan u yoki bu davomiylikdagi muayyan bir davrdir. Jinoyat sodir etish vaqti JK Maxsus qismi muayyan moddasi dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan bo'lsa, zaruriy belgi, nazarda tutilmagan bo'lsa, jinoyat tarkibi obyektiv tomonining mustaqil belgisi bo'ladi. Har qanday jinoyat muayyan bir vaqtda sodir etiladi;

d) jinoyat sodir etish joyi mamlakatning chegarasi bilan belgilangan jinoyat sodir etilgan aniq hudud(quruqlikda, suvda, xavoda yoki muayyan bo'shliq(makon))ga tegishli bo'lgan jinoyatning makon(joy)ga oid xususiyatini o'zida ifodalaydi. Shunday qilib, joyning jinoyat-huquqiy mazmuni ushbu so'zning umumiy qabul qilingan ta'rifiga to'liq mos keladi, ya'ni, bu nimadir joylashgan, sodir bo'ladigan (yoki bo'lgan, sodir etilgan) borliq(makon), joy hisoblanib, jinoyatning sodir etilish joyi jinoyat sodir sodir etilgan borliq, makon va joydir.

e) jinoyat sodir etish usuli jinoiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning tavsifini ifodalaydigan jinoyatni sodir etishda qo'llanilgan hatti-harakat, ish(operatsiya), usullar majmui, harakatlarga yunaltirilgan, bir-bir bilan bog'liq bo'lgan usul va uslublar tizimidir.

4. jinoiy harakatsizlik: sof harakatsizlik; aralash harakatsizlikga ajratilgan. "Sof" harakatsizlikka JK 221 va 279-moddalaridagi jinoyatlarni keltirish mumkin. Bunda qonunda belgilangan harakatni bajarmaslik, ijtimoiy xavfli oqibat ro'y bergan yoki bermaganligidan qat'i nazar, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan hisoblanadi. "Aralash" harakatsizlikka JK 260 va 266-moddalaridagi qilmishlarni keltirish mumkin.

5. Ijtimoiy xavfli oqibatning jinoyat-huquqiy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1) jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarni farqlovchi belgi sifatida xizmat qiladi; 2) qilmishni kriminalizatsiya qilishning asosiy mezonini sifatida

qonunchilikda belgilanadi. Ijtimoiy xavfli oqibat miqdori va xususiyati qilmishni jinoyat deb topish shartlaridan biri hisolanadi, ya'ni u jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblandi; 3) qilmishni kvalifikatsiya qilishda (jinoyat tarkibi zaruriy belgisi sifatida) va jinoiy javobgarlik miqdorini belgilashda (jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarda) muhim ahamiyat kasb etadi: 1) ijtimoiy xavfli oqibatning jinoyat qonunchiligi tegishli normasida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilishi yoki nazarda tutilmasligi muayyan jinoyat tarkibi tuzilishining o'ziga xosligini namoyon qiladi; 2) ijtimoiy xavfli oqibatni jinoyat qonunchiligi tegishli normasida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilishi uni aniqlash lozimligini anglatadi va qonunni qo'llash vakolatiga ega subyektlar faoliyatida (dastlabki tergov va sud) isbotlanishi talab qiladi; 3) moddiy tarkibli jinoyatlar sodir etilganida jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoiy oqibat kelib chiqmasa, mazkur jinoyatlar subyektiv tomon zaruriy belgisi bo'lgan aybni inobatga olgan holda kvalifikatsiya qilinishi lozim: – to'g'ri qasd bilan sodir etilgan jinoyatlarda qonunda nazarda tutilgan oqibat kelib chiqmaganida, qilmish jinoyat sodir qilishga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilanadi; – egri qasddan sodir etilgan jinoyatlar haqiqatda kelib chiqqan faktik oqibatlarga qarab kvalifikatsiya qilinadi; – ehtiyotsizlik bilan sodir etilgan jinoyatlarda ijtimoiy xavfli oqibat ro'y bermasa, jinoiy javobgarlik vujudga kelmaydi; – jinoiy oqibatning kelib chiqishi ba'zan jinoyatning javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilganligini anglatadi(jinoyat tarkibining javobgarlikni og'irlashtiruvchi(kvalifikatsiyaviy) belgisi); 4) jinoiy oqibat jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini belgilovchi asosiy mezon bo'lib, u qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga ta'sir qiladi. Jumladan, oqibatlar qanchalik og'ir bo'lsa, muayyan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. 5)jinoiy oqibat jinoyat qonunchiligi tegishli normasida nazarda tutilmagan bo'lsa, muayyan jinoyat tarkibining zaruriy belgisi hisoblanmasa, u jazo tayinlashda jazoni og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holat sifatida inobatga olinishi mumkin.

6. Sababiy bog'lanish to'g'risidagi nazariyalar, konsepsiyalar, sababiy bog'lanish mavjudligini aniqlashda sababiyat zanjiri, shart-sharoitlar, mezon va qoidalarni tadqiq etish natijasida shaxsning jinoiy xulq-atvori va ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof oqibat(natija) o'rtasidagi sababiy bog'lanishning xilma-xil to'rtta shakli ajratilgan va ularni quyidagi formulalarda ifodalashga harakat qilingan:

a) faol xulq-atvor – faol oqibat(natija) (F-F). (masalan, o't qo'yish orqali mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish. Aybdor faol harakat sodir etib, avtotransport vositasiga o't qo'yishi natijasida u yonib ketadi);

b) faol xulq-atvor – nafaol oqibat(natija) (F-N). Faol ijtimoiy xavfli harakat ba'zida ijtimoiy xavfli bo'lgan faol yoki nafaol oqibatni keltirib chiqarishi mumkin (masalan, soliq yoki yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlashdagi hujjatlarni qalbakilashtirish(soliq solinadigan obyektlarni kamaytirib ko'rsatish yoki yashirish)ni misol sifatida keltirish mumkin.

d) nafaol(passiv) xulq-atvor – faol(aktiv) natija (N-F), unda shaxsning nafaol xulq-atvori(harakatsizlik) jinoyatning asosiy sabablardan biri bo'ladi, atrof muhitdagi o'zgarishlar ro'y bergan oqibat(natija) sifatida baholanadi (masalan,

kasalga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan shifokorning harakatsizligi oqibatida odam o'lishi);

e) nofaol xulq-atvor – nofaol oqibat(natija) (N-N), unda sodir etilgan harakatsizlik bilan ro'y bergan oqibat o'rtasida aniq sababiy bog'lanishning mavjud emasligi tufayli bu ilmiy yondashuvda jinoyat huquqi nazariyasida munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda, ammo mazkur ilmiy yondashuvda sabab – shart-sharoitlar majmuida, sababiyat o'zaro bog'liqlikda vujudga keladi. Jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan obyekt tizimi(sistemasiga aloqador bo'lsa, o'sha shaxs javobgarlikka tortilishi lozim bo'ladi(masalan, suzishni bilmaydigan shaxsni suvga tushishga kim ko'ndirgan bo'lsa yoki suvda cho'kayotgan odamlarni qutqarish majburiyati belgilangan kasb egasi o'sha kuni navbatchi bo'lsa).

7. Jinoyat huquqi nazariyasi va qonunni qo'llash amaliyotida sababiy bog'lanish muammosini hal etish hamda uni ijtimoiy xavfli qilmish va oqibat o'rtasida bog'liqlikni aniqlash uchun quyidagi qoidalar va prinsiplar qo'llanishi lozimligi asoslanadi:

1) *jinoiy qilmish–vaqt–ijtimoiy xavfli oqibat qoidasi*. Qilmish va jinoiy oqibat o'ziga xos vaqt ketma-ketligida bo'lib, qilmish albatta jinoiy oqibatdan oldin sodir etilganligi aniqlanish lozim;

2) *hodisalarning sun'iy izolyatsiyasi prinsipi*(“*but-for test*”), ya'ni hodisalarni sun'iy ravishda ajratib olish tamoyili qo'llanishi kerak. Bu tamoyil o'ziga xos qoidalar “uch”ligi dan iborat bo'lib, birinchidan, shaxs xulq-atvori ajratib olinishi lozim, chunki uning xulq-atvori jinoiy xulq-atvor bo'lsa, jinoiy qilmish kelib chiqqan oqibatning zaruriy sababi hisoblanadi. Ikkinchidan, sabablar(sababiy bog'lanish) zanjiridan zaruriy shart-sharoitlar ajratib olinishi kerak, chunki zaruriy shart-sharoit zaruriy sababga ko'maklashuvchi kategoriya hisoblanadi. Uchinchidan, kelib chiqqan oqibat ajratib olinishi lozim. Shuningdek, maxsus mantiqiy izolyatsiya qoidasini qo'llash, ya'ni shaxs xulq-atvori va kelib chiqqan oqibat yakkalab mantiqan maxsus ajratib olinishi kerak. Ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik va yuz bergan jinoiy oqibat o'rtasida sababiy bog'lanish mavjudligi aniqlanishi lozim bo'ladi. Bunda birinchi navbatda jinoiy xulq-atvor va yuzaga kelgan jinoiy oqibatni boshqa hodisalarning butun tizimidan ajratib olinishi kerak;

3) *“oqibat–qilmish” prinsipi*. Bu tamoyil jinoiy oqibatdan qilmishga qarab borish metodini qo'llashdir. Bu uslubda boshlang'ich nuqta jinoiy oqibat deb belgilanishiga sabab birinchidan, dastlabki tergov amaliyotida zararli oqibatni keltirib chiqqan jinoyat avvalo oqibatning aniqlanishi bilan bog'liqdir. Masalan, hayot uchun muhim bo'lgan a'zo(yurak)ga pichoq urilgan murdaning topilishi. Ikkinchidan, sababiy bog'lanish muayyan sabablar zanjiridan iborat bo'lib, uni bilish va aniqlash uchun bir zanjir bo'lagidan ikkinchisiga o'tish lozim bo'ladi. Shuning uchun “oqibat–qilmish” tamoyili, ya'ni kelib chiqqan oqibatdan qilmishga qarab yo'nalish tamoyilini qo'llanilishi lozim;

4) *“mantiqiy istisno va inkor” qoidasi*, sababiy bog'lanishning oltin qoidasi bo'lgan “mantiqiy(hayolan) istisno va inkor” qoidasi bo'lib, unga ko'ra muayyan jinoiy qilmish ijtimoiy xavfli oqibatni keltirib chiqqanidagina sababiy bog'lanish mavjud bo'ladi, ya'ni ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilmasa, jinoiy oqibatning kelib

chiqishi ham mumkin emas.

8. Qilmishni kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibi obyektiv tomoni fakultativ belgilarining “an’anaviy uchligi”: 1) qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilari JK Maxsus qismi muayyan moddasi dispozitsiyasida jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilganligi; 2) jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilarining JK Maxsus qismi muayyan moddasida jinoyat tarkibi (obyektiv tomon)ning javobgarlikning og‘irlashtiruvchi (kvalifikatsiyaviy) zaruriy belgi sifatida nazarda tutilganligi; 3) jinoyat qonunida jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativ belgilari jazoni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holat sifatida (JK 55-56-moddalarida) nazarda tutilganligi asoslangan.

II. Jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan takliflar:

1. JK VIII bo‘lim “Atamalarning huquqiy ma‘nosi”da **harakat, harakatsizlik va aralash harakatsizlik** tushunchalarini quyidagicha bayon qilish taklif qilingan:

“Harakat – shaxsning ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, ongli, irodaviy va murakkab xususiyatga ega tashqi faol xulq-atvori.

Harakatsizlik – shaxsning normativ hujjatlarida, sud qarorida, shaxs o‘z harakatlari tufayli yoki xizmat, kasbiy yoxud mansab vazifalari va majburiyatlarida bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni real imkoniyatga ega bo‘la turib bajarmaslikda ifodalangan ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, ongli, irodaviy va murakkab xususiyatga ega tashqi sust xulq-atvori.

Aralash harakatsizlik – shaxsning ongli, irodaviy tashqi faol xulq-atvordan iborat oldingi harakati tufayli Jinoyat kodeksi bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazilishi oqibatida unda nazarda tutilgan zararli, ijtimoiy xavfli oqibat keltirib chiqaradigan va bajarishi shart qilib belgilangan muayyan harakatlarni real imkoniyatga ega bo‘la turib bajarmaslikda ifodalangan harakatsizlikda ularni oldini olmaydigan, harakat va harakatsizlik majmui.”

2. JK Umumiy qismiga yangi 16¹-moddani kiritish taklif qilingan:

“16¹-modda. Jinoyat tarkibi

Jinoyat tarkibi o‘zida ijtimoiy xavfli qilmish(harakat yoki harakatsizlik)ni muayyan jinoyat sifatida xarakterlovchi Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan obyektiv hamda subyektiv belgilarning zarur va yetarli majmuini ifodalaydi.

Jinoyat tarkibi amaldagi Kodeksning muayyan moddasi bilan jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun huquqiy asos hisoblanadi.”

3. JK Umumiy qismi 56-moddasiga quyidagi bandlarning kiritilishi asoslangan:

“p) qurol, o‘q-dorilar, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, portlatish yoki ularga o‘xshatib yasalgan moslamalardan foydalangan holda;

r) hokimiyat vakilining xizmat kiyimi yoki hujjatidan foydalangan holda;

4. JK 110-moddasi 2-qismiga quyidagi bandlarning kiritilishi taklif qilingan:

“g) ta‘lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar yoki boshqa muassasalarda yosh bolaning tarbiyasi, o‘qishi va sog‘lig‘i uchun mas‘ul bo‘lgan xodim tomonidan sodir etilgan bo‘lsa;

5. JK 118- va 119-moddasi 2-qismiga quyidagi bandlarning kiritilishi taklif qilingan:

“e) o‘zida tanosil yoki boshqa yuqumli kasalligi borligini bila turib, bu kasallik jabrlanuvchiga yuqishiga sabab bo‘lsa;

j) o‘ta shafqatsizlik bilan sodir etilgan bo‘lsa;

z) badanga og‘ir shikast yetkazgan holda sodir etilgan bo‘lsa.”

6. JK 118- va 119-moddasi 4-qismiga quyidagi bandlarning kiritilishi taklif qilingan: a) o‘n to‘rt yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan;

b) ehtiyotsizlik oqibatida jabrlanuvchining o‘limiga sabab bo‘lsa.”

7. JK 131-moddasi 3-qismini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilingan:

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

“a) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib; b) xizmat mavqeidan foydalangan holda;

v) ta‘lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi yoki boshqa muassasalarda yoxud ko‘ngilochar obyektlar joylashgan boshqa joylarda sodir etilgan bo‘lsa.”

8. JK 155-moddasi 3-qismiga quyidagi bandlarning kiritilishi taklif qilingan:

“Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

v) yadroviy, radioaktiv, kimyoviy, biologik, portlovchi, kuchli ta‘sir qiluvchi zaharli moddalar yoki materiallar va ommaviy qirg‘in qurollaridan yoxud portlatish qurilmalardan foydalangan holda sodir etilgan bo‘lsa.”

9. JK 169-moddasi 2-qismi “v” bandiga “uy-joyga, omborxonada, boshqa xona yoki transport vositasiga g‘ayriqonuniy ravishda kirgan holda” deb berilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, JK 164-moddasi 3-qismi “v” bandiga va 166-moddasi 3-qismi “b” bandiga “uy-joyga, omborxonada, boshqa binolarga g‘ayriqonuniy kirgan holda yoxud transport vositasida sodir etilgan bo‘lsa” degan o‘zgartishlar kiritish maqsadga muvofiq.

10. JKni quyidagi mazmundagi 227¹-modda bilan to‘ldirish taklif qilingan:

“227¹-modda. Avtomototransport vositalarining va ular tirkamalari (yarim tirkamalari)ning davlat raqam belgilari yoxud identifikatsiya raqamlarini tayyorlash, qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish

Qonunga xilof tarzda avtomototransport vositalarining va ular tirkamalarining (yarim tirkamalarining) davlat raqam belgilari yoxud identifikatsiya raqamlarini tayyorlash, qalbakilashtirish, ularni o‘tkazish yoki foydalanish, –

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha jarima yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.”

11. JK 229-moddasini quyidagi mazmundagi 2- va 3-qismlar qismlar bilan to‘ldirish taklif qilingan: *“O‘sha harakatlar:*

a) zo‘rluk ishlatib yoki zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitib;

b) telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalanib tarqatilgan holda sodir etilgan bo‘lsa, –

bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.”

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar badanga og‘ir shikast yetkazilishiga yoxud boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa,

–

uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.”

12. JKni quyidagi mazmundagi 266¹-modda bilan to‘ldirish taklif qilingan:

“266¹-modda. Transport vositasini mast holda boshqarish

Haydovchi yoki transport vositalarini boshqarish huquqi bo‘lmagan shaxs tomonidan transport vositalarini alkogolli ichimlikdan mast holda yoki giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta’siri ostida boshqarishi, shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa,

bir yildan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.”

13. JK 266-moddasi 3-qismiga quyidagi bandni kiritilishi taklif qilingan:

“O‘sha qilmish:

g) alkogolli ichimlikdan yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki ularning analoglari yoxud shaxsning aql-idrokiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa moddalar ta’siri ostidagi mastlik holatida sodir etilishi natijasida odam o‘limga sabab bo‘lsa.”

III. Sud-tergov organlari amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan takliflar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Qasddan odam o‘ldirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 13-bandini quyidagi qism bilan to‘ldirish:

“Sudlar shuni inobatga olishlari kerakki, nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan bog‘liq holda qasddan odam o‘ldirishi, faqat aybdor nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirishga va o‘lim kelib chiqishi tariqasidagi oqibatga nisbatan to‘g‘ri qasd ko‘rinishidagi ayb mavjud bo‘lgandagina JK 97-moddasi ikkinchi qismining “z” bandi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Bunda, qilmishni shu taqlid kvalifikatsiya qilish uchun nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan bog‘liq holda kelib chiqqan o‘lim o‘rtasida sababiy bog‘lanish borligi aniqlanishi shart.”, degan mazmundagi tushuntirish berilishi maqsadga muvofiqdir.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorining 3-bandini quyidagi qism bilan to‘ldirish taklif qilindi:

“Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish paytida jabrlanuvchiga yengil, o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishi tegishli va JK 118-moddasi yoki 119-moddasi dispozitsiyasi bilan qamrab olinadi va JK 104, 105, 109-moddalari bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi. Agar nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish paytida jabrlanuvchiga og‘ir shikast yetkazilsa, aybdorning harakatlari JK 118-moddasi yoki 119-moddasi 2-qism “z” bandi bilan qamrab olinadi va JK 104-moddalari bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilishni talab etmaydi.”

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC
DEGREES DSc.07/13.05.20.Yu.22.03 AT TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

KHUDAYKULOV FERUZBEK KHURRAMOVICH

**THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF OBJECTIVE
SIDE OF CORPUS DELICTI**

12.00.08 – Criminal Law. Criminology. Criminal-executive law

ABSTRACT
of doctoral (Doctor of Science) dissertation on legal sciences

Tashkent – 2023

The theme of the doctoral dissertation (DSc) was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of higher education, science and innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2021.4.DSc/Yu185.

The dissertation is prepared at Tashkent State University of Law.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website of the Scientific Council (www.tsul.uz) and Information educational portal "ZiyoNET" (www.ziynet.uz).

Scientific consultant:	Abdurasulova Qumriniso Raimkulovna Doctor of Science in Law, Professor
Official opponents:	Rustambaev Mirzayusup Xakimovich Doctor of Science in Law, Professor Kabulov Rustam Doctor of Science in Law, Professor Abduqodirov Sherzod Yoqubjonovich Doctor of Science in Law, Associate Professor
The leading organization:	The Supreme School of Judges with the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan

The defense of the dissertation will be held on December 15, 2023 at 14⁰⁰ at the Session of the Scientific Council DSc.07/13.05.20.Yu.22.03 at the Tashkent State University of Law (Address: 100047, Sayilgokh street, 35. Tashkent city. Phone: +99871 233-66-36; Fax: +99871 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

The doctoral dissertation is available at the Information Resource Center of Tashkent State University of Law (registered under No. 1200), (Address 100047, Amir Temur Street, 35. Tashkent city. Phone: +99871 233-66-36).

The abstract of the dissertation distributed on November 30, 2023.

(Registry protocol No.11 on November 30, 2023).

A.A. Otajonov
Chairman of the Scientific Council for
awarding scientific degrees, Doctor of
Science in Law, Professor

M.K. Urazaliev
Secretary of the Scientific Council for
awarding scientific degrees, Doctor of
Science in Law, Professor

N.S. Salaev
Chairman of the Scientific Seminar
under the Scientific Council for
awarding scientific degrees, Doctor of
Science in Law, Professor

INTRODUCTION (abstract of DSc thesis)

The actuality and relevance of the dissertation theme. In the world, combat crime and its prevention are gaining global importance, due to taking effective measures against it, to study the causes and conditions of crime, to determine the internal and objective (external) side of the crime is the great scientific and practical importance. Unfortunately, in recent years, the indicators of the quantity and quality of crimes have been increasing all over the world and in most countries. The crime rate per 100,000 people was 49.2 in the USA, 46.9 in England, 38 in Germany, 54.5 in France, 47.3 in Italy, 22.6 in Japan, 39.7 in Russia and 31.3 in Uzbekistan. In the last three years, the crime rate in Uzbekistan has increased by 45.24%¹. According to the United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC), every year in the world half a million crimes are committed through socially dangerous forms and methods and most of them end with murder². In the international acts, attention is paid to the revision of the legislation in order to correctly express the liability for the crime in the law, to facilitate the law enforcement practice as much as possible³. The above depicts that the priority tasks are to improve the criminal legislation, to ensure the correct application of the rules of the Criminal Code and the imposition of a fair punishment.

It is gaining actual importance that as an essential direction of increasing the effectiveness of crime prevention in the world, improving the criminal and legal measures to combat crime, in particular, the rules of the criminal law; studying the theoretical and practical aspects of the objective side of the corpus delicti and related scientific and theoretical views, classifying the signs of the objective side of the corpus delicti; researching the signs of the forms of the criminal act (action or inaction), the nature and structure of the emergence of socially dangerous act, the legal causation between the criminal act and the consequences and the chain of causality, conditions, criteria and rules for its determination; the importance of the objective side of the crime in the qualification of the act as a necessary and aggravating (qualifying) circumstance of liability; improving the theoretical and practical issues of the qualification of the act according to the objective side of the corpus delicti and related rules of the criminal law; improving the law enforcement practice; finding the scientific and practical solution to the decriminalization of crimes and the liberalization of criminal law and judicial investigation practice.

Combating crime in our republic a number of targeted measures are being implemented that reforming criminal legislation, improving the law enforcement practice of criminal law rules, paying great attention to strengthening application of the principles of legality, equality of citizens before the law, democracy, humanity, justice, liability for guilt and the inevitability of liability in the activities of law enforcement and judicial bodies, significant work is being done in this regard, and this area is being developed to a certain extent. In particular, “Consistently continuing the policy of improving the criminal, criminal-procedural and criminal executive legislation, widely introducing the principle of humanitarianism into the system of criminal punishments

¹ https://www.numbeo.com/crime/country_result.jsp?country=Uzbekistan

² <https://www.unodc.org>, <https://wisevoter.com/country-rankings/violent-crime-rates-by-country>

³ <https://www.unodc.org>

and their execution, making the principle of “law – priority, punishment – inevitable” the main criteria for the development of the criminal legislation of country”¹ the fact that it is defined as priority areas indicates that there is a need for research in this area.

This research work contributes to the implementation of the tasks stipulated in the Law of the Republic of Uzbekistan “On Protection of Women from Harassment and Violence” (2019), “On Weapons” (2019), in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan ‘On measures to further reform the judicial system, strengthen basics of reliable protection of rights and freedoms of citizens” (2016), “On measures to raise the quality of the activities of internal affairs bodies to a new level in the sphere of providing public safety and combat crime” (2021), “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026” (2022), the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to further improve the crime prevention and crime combating system” (2017), “On measures to fundamentally improve the system of criminal and criminal-procedural legislation” (2018), “On additional measures to improve the personnel training system in the sphere of crime prevention and public safety” (2019) and other normative legal acts related to the research theme.

The dependence of the research on the priority areas of development of science and technologies in the country. This research was carried out in the priority direction of the development of science and technology of the republic I “Formation a system of innovative ideas and ways to implement them in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an informed society and a democratic state”.

Review of foreign research on the theme of the dissertation². The objective side of the crime and the corpus delicti, that is, the socially dangerous act (act or inaction) and the consequence, the legal causation between the criminal act and the consequence, scientific research aimed at improving the concepts of “corpus delicti” and “actus reus” and related criminal legislation is being implemented in international, scientific and educational institutions, including United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC), Violence Research Centre of Cambridge University (UK), Case Western Reserve University (USA), Law Government Gun Crime Prevention Research Center (USA), Canadian Domestic Homicide Prevention Initiative (Canada), Moscow State University named after M.V.Lomonosov (RF), People’s Friendship University of Russia (RF), Immanuel Kant Baltic Federal University (RF), Tashkent State University of Law.

The scientific results have been achieved in researches related to the study of the theoretical and practical aspects of the objective side of corpus delicti. For instance, recognition of the act as a crime, introduction of new rules into the criminal law for the effective protection of a person, his rights and freedoms, the interests of society and the

¹ Decree No. PF-60 of the President of the Republic of Uzbekistan “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026”, adopted on January 28, 2022 // National database of legislation of the Republic of Uzbekistan, 21.04.2022, No. 06/22/113/0330 // <https://lex.uz/docs/5841063>

² Foreign scientific research on the theme of the dissertation has been done on the basis of the following sources: <https://www.unodc.org>, <https://www.vrc.crim.cam.ac.uk>, <https://case.edu>, <https://theses.bham.ac.uk>, <https://crimeresearch.org>, <http://cdhpi.ca>, <https://www.msu.ru>, <http://www.apu.fsin.su>, <https://msal.ru>, <https://csu.ru>, <https://www.rsu.edu.ru>, <http://vuit.ru>, <http://www.rudn.ru>, <https://www.kantiana.ru>, kazcrim@netmail.kz, <https://http://crimas.ru>

state, property, the natural environment, peace, and human security from criminal attacks and that the objective side of the corpus delicti is important in the improvement, the internal side of the crime is determined by the signs of its external side, as well as combating crime, reforming and improving criminal law, the need to carry out regional researches to improve the law enforcement practice of criminal law (UN Office on Drugs and Crime); the role and importance of the use of violence in the commission of a crime, which is a sign of its external aspect (Violence Research Centre of Cambridge University); “Actus Reus” (criminal act) is an objective criterion for bringing a person to criminal liability (Case Western Reserve University); legal causation is important in criminal law (Birmingham Law School of Birmingham University); the presence of a factor of the use of a firearms in the commission of a crime and its illegal handling (Law Government Gun Crime Prevention Research Center); general doctrine on the objective side of crime (Rostov State University); the social danger of the act in Russian criminal law (People’s Friendship University of Russia); inaction as a form of criminal aggression: issues of liability under the legislation of the Russian Federation and the Republic of Kazakhstan (Chelyabinsk state university); criminal-legal and criminological aspects of criminal inactivity (Ryazan State University named after S.A. Yesenin); consequences of a crime in Russian criminal law, socially dangerous act in criminal law (Volga University named after V.N. Tatishchev); forms and types of criminal acts, causation in criminal law: theoretical and practical problems (Moscow State Law University named after O.E. Kutafin), the importance and role of individual prevention of crimes committed using violence as a method of committing crime (Criminological Association of Kazakhstan); improvement of the theoretical and practical aspects of the objective sides of the corpus delicti (Tashkent State University of Law) conclusions are formed and justified.

